



XALQARO SAVDO NAZARYALARI, TASHQI SAVDO SIYOSATI.

Raximjonov Behruzбек Dilmurod o'g'li

Millat Umidi universiteti Xalqaro biznes va moliya fakulteti
2-bosqich talabasi

Umarova Muqaddas Abbasovna

Ilmiy rahbar : Millat Umidi universiteti Xalqaro
biznes va moliya kafedrası professori i.f.d
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20200489>

Tezis annotatsiyasi

Mazkur tezisdá xalqaro savdo nazariyalarining klassik bosqichdan zamonaviy yondashuvlargacha bo'lgan evolyutsiyasi va ularning tashqi savdo siyosatini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda mamlakatimizning jahon bozoriga integratsiyalashuvi sharoitida protektsionizm va liberallashtirish o'rtasidagi muvozanatni saqlash masalalari metodologik jihatdan asoslab berilgan. Muallif tomonidan tashqi savdo samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Аннотация: В данном тезисе анализируется эволюция теорий международной торговли от классических этапов до современных подходов, а также их роль в формировании внешнеторговой политики. В исследовании методологически обоснованы вопросы поддержания баланса между протекционизмом и либерализацией в условиях интеграции нашей страны в мировой рынок. Автором выдвинуты научно-практические предложения по повышению эффективности внешней торговли на основе полного содержания статьи.

Abstract: This thesis analyzes the evolution of international trade theories from classical stages to modern approaches and their role in shaping foreign trade policy. The research methodologically substantiates the issues of maintaining a balance between protectionism and liberalization in the context of our country's integration into the world market. The author puts forward scientific and practical proposals for improving the efficiency of foreign trade based on the comprehensive content of the research

Kalit so'zlar

Xalqaro savdo, mutloq ustunlik, nisbiy ustunlik, tashqi savdo siyosati, eksport, import, tarif tartibga solish, protektsionizm, liberallashtirish.

Kirish (introduction)

Bugungi kunda xalqaro savdo munosabatlari global iqtisodiyotning ajralmas qismi va milliy iqtisodiy o'sishning eng muhim drayveriga aylandi. Jahon bozorida





keskin raqobat va iqtisodiy resurslarning taqsimlanishidagi o'zgarishlar xalqaro savdo nazariyalarini zamonaviy nuqtai nazardan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Mazkur tadqiqot mavzusining tanlanish asosi shundaki, an'anaviy savdo modellaridan innovatsion va raqamli savdo modellariga o'tish jarayoni milliy iqtisodiyotning tashqi savdo strategiyasini yangilashni talab qiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi mamlakatimizning jahon iqtisodiy hamjamiyatiga, xususan, Jahon savdo tashkilotiga (JST) integratsiyalashuvi sharoitida milliy manfaatlarimizni himoya qiluvchi samarali tashqi savdo siyosatini ishlab chiqish zaruriyati bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi klassik va zamonaviy xalqaro savdo nazariyalarini qiyosiy tahlil qilish orqali, milliy iqtisodiyotda eksport salohiyatini oshirish va import o'rnini bosish o'rtasidagi optimal muvozanatni ilmiy asoslab berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi: xalqaro savdo nazariyalarining evolyutsion bosqichlarini o'rganish, tashqi savdo siyosatining tarif va notarif usullari samaradorligini baholash hamda milliy iqtisodiyot uchun ustuvor yo'nalishlarni belgilash.

Tadqiqot metodologiyasi (research)

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi xalqaro savdo nazariyalari va tashqi savdo siyosati o'rtasidagi dialektik aloqadorlikni o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, u tadqiqot uchun zarur axborotni olish yo'llari va tadqiqot etikasini belgilashni o'z ichiga oladi. Mazkur bo'limda tadqiqot strategiyasini aniqlash bo'yicha ratsional qaror qabul qilish asosida qo'yilgan muammoning aniq yechimiga olib chiquvchi yo'l belgilandi. Tadqiqot dizaynida kuzatish, eksperiment, keys-stadi va arxiv tadqiqoti kabi strategiyalardan foydalanilgan bo'lib, ular iqtisodiy jarayonlarni tizimli tahlil qilish imkonini beradi. Metodologiyaning mukammalligi tadqiqot uchun belgilangan yo'lning ishonchliligi (reliability) va aniqliligini (validity) asoslash orqali namoyon bo'ladi. Shu maqsadda, tadqiqot ob'ektining tanlovi (sampling) sifatida xalqaro savdo aylanmasining oxirgi yillardagi dinamikasi va milliy iqtisodiyotning eksport-import ko'rsatkichlari tanlab olindi. Ma'lumotlar bazasini shakllantirishda birlamchi yoki ikkilamchi ma'lumot manbalaridan foydalanish to'g'risidagi qarorlar asosida rasmiy statistik hisobotlar va xalqaro reyting agentliklari ko'rsatkichlari tahlilga tortildi. Tadqiqotning tahlil qismida tahlil usulining natijalari ifoda etiladi; topilgan natijalar bo'yicha muhokama maqolaning keyingi qismining asosiy vazifasi hisoblanadi. Metodologik yondashuvimiz nafaqat nazariy bilimlarni umumlashtirish, balki tashqi savdo siyosatini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishga ham xizmat qiladi. Aynan metodologiyaning to'g'ri tanlanishi tadqiqot muammosini ochib berish, uning dolzarbligi va ilmiy ahamiyatini asoslashda poydevor vazifasini o'taydi.





Tadqiqot tahlili va natijalari

Xalqaro savdo nazariyalari evolyutsiyasini tahlil qilish natijasida quyidagi asosiy bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. **Merkantilizm** (Boylik manbai — oltin va ijobiy savdo balansi).
2. **A.Smit va D.Rikardo nazariyalari** (Mutloq va nisbiy ustunlik).
3. **Xeksher-Olin nazariyasi** (Ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganlik).

Tashqi savdo siyosatini tartibga solishda tarif va notarif usullarning samaradorligi quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

1-jadval. Tashqi savdo siyosatini tartibga solish vositalari tahlili

Tartibga solish usuli	Maqsadi	Kutilayotgan natija
Bojxona tariflari	Mahalliy ishlab chiqaruvchini himoya qilish	Import hajmini kamaytirish
Kvotalar	Bozor hajmini nazorat qilish	Narxlar barqarorligini ta'minlash
Subsidiyalar	Eksportni rag'batlantirish	Milliy tovarlar raqobatbardoshligini oshirish

Manba: Muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar asosida tayyorlandi.

Xulosa va takliflar (conclusion/recommendations)


O'tkazilgan tadqiqot natijasida shunday xulosaga kelindiki, xalqaro savdo nazariyalari doimiy ravishda mamlakatlarning texnologik darajasiga qarab o'zgarib boradi. Milliy iqtisodiyot uchun quyidagilar taklif etiladi:

- Eksport tarkibida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish;

Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonida milliy manfaatlar himoyasini ta'minlovchi "yumshoq proteksionizm" usullarini qo'llash

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (references):

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "Tasvir", 2022. – 416 b.
2. Krugman P.R., Obstfeld M., Melitz M. International Economics: Theory and Policy. 11th Edition. – New York: Pearson, 2018. – 800 p.





3. Porter M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 2004. – 592 p.
4. Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent: "Baktria press", 2015. – 584 b.
5. Gulyamov S.S. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. – Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2019. – 396 b.
6. Salvatore D. International Economics. 12th Edition. – Hoboken: Wiley, 2016. – 720 p.
7. Shodmonov Sh.Sh., Alimov R.H. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: "Moliya", 2020. – 788 b.

